



JIZZAX VILOYATI DO'STLIK TUMAN HOKIMI QARORI

2022 - yil 21 - yanvar

25-3-47-Q/22

Do'stlik tuman hokimligi

Jizzax viloyat hokimining 2022 yil 10 yanvardagi

11-3-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30-dekabrda PF-46-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2022 yil 10-yanvardagi 11-3-0-Q/22-sonli qarorining ijrosini ta'minlash, shuningdek, Daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas'ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PF-46-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2022 yil 10 yanvardagi 11-3-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining mazkur qarorining 2) bandi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

- 2022-2024 yillarda tumanda "yashil bog'lar"ni barpo etish dasturi 1-ilovaga muvofiq;

- 2022-2024 yillarda tumanda yangi tashkil etilayotgan "yashil jamoat parklari" ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

- 2022-2026 yillarda tuman obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ko'kalamzorlashtirish hududlariga sug'orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish bo'yicha dastur 3-ilovaga muvofiq;

- 2022-2026 yillarda tuman obodonlashtirish boshqarmasini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash parametrlari 4-ilovaga muvofiq;

- tumanda yashil hududlarni rivojlantirish, ko'kalamzorlashtirish va ko'chat ekish ishlarini tizimli tashkil etish bo'yicha nazorat reja 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hududidagi irrigatsiya va sug'orish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ishchi guruhi ikki oy muddatda tuman markazida obodonlashtirish ob'ektlarining sug'orish tizimlarini, shu jumladan ariqlar, nasoslar, quduqlar, sug'orish quvurlari va yer osti suv chiqarish quduqlarini xatlovdan o'tkazib, ularni joriy ta'mirlash, qayta tiklash va tozalash choralarini ko'rsin.

5. Tuman hokimining o'rinbosari N.Saxatov, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Muxtorov) va Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (O.Xadjayev) bilan birgalikda:

- har yili kuz va bahor mavsumlarida ko'chat ekish va saqlash ishlarini tashkil etish bo'yicha "yashil haftalik" tadbirlari o'tkazib borilishini ta'minlasin;

- tuman gazetasi va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalangan holda yoshlar va boshqa kungillilarni daraxt ekish, parvarishlash ishlariga faol jalb qilish tadbirlarini tashkil qilsin.

6. Tuman hududidagi barcha tashkilot va korxonalar raxbarlariga:

- ikki oy muddatda o'z hududlaridagi daraxtlar soni va turi xaqida ma'lumotlarni Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shakl asosida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish organlariga taqdim etsin;

- har chorakda bir marotaba, hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar o'zlari tomonidan yangi ekilgan dakraxtlar soni va turi bo'yicha ma'lumotlarni tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limiga taqdim etib borsin.

7. Tuman hokimining o'rinbosarlari T.Sherbekov, L.Suyunov, Davlat soliq inspeksiyasi M.Tursunmurador, tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limi B.Saytqulov bilan birgalikda ikki hafta muddatda xalq deputatlari tuman Kengashiga umumiy maydonining 60 foizida ko'kalamzorlashtirish ob'ektlari mavjud bo'lgan istirohat bog'lari, parklar va tematik xiyobonlarga

hamda ularni ishonchli boshqaruv va ijaraga olgan investitsion majburiyatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirib borayotgan va soliq qarzdorligi mavjud bo'lmagan tadbirkorlarga nisbatan ushbu faoliyat turi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsientlarni qo'llash masalasini ko'rib chiqish uchun kiritsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari L.Suyunov va T.Sherbekovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Ш.Дарвишев

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
25-3-47-Q/22-сон қарорига
1-илова

2022-2024 yillarda tumanda “yashil bog’lar”ni barpo etish

DASTURI

№	Tuman nomi	Jami 2022-2024 yillarda				2022 yilda				2023 yilda				2024 yilda			
		Jami maydon (gektar)	Jami harajat-lar (mln so'm)	Shu jumladan:		Maydon (gektar)	Harajat (mln so'm)	Shu jumladan:		Maydon (gektar)	Harajat (mln so'm)	Shu jumladan:		Maydon (gektar)	Harajat (mln so'm)	Shu jumladan:	
				Ko'chat ekish bilan bog'liq hara-jatlar	Tomchi-latib sug'orish tizimini joriy etish harajati			Ko'chat ekish bilan bog'liq hara-jatlar	Tomchi-latib sug'orish tizimini joriy etish harajati			Ko'chat ekish bilan bog'liq hara-jatlar	Tomchi-latib sug'orish tizimini joriy etish harajati			Ko'chat ekish bilan bog'liq hara-jatlar	Tomchi-latib sug'orish tizimini joriy etish harajati
1	Do'stlik tumani	2,8	142,0	98,0	44,0	2,8	142,0	98,0	44,0								

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
25-3-47-Q/22-сон қарорига
2-илова

2022-2024 yillarda tumanda yangi tashkil etilayotgan “yashil jamoat parklari”

RO'YXATI

T/p	Manzil	Maydoni (gektar)
Do'stlik tumani		
1	“G'.G'ulom” (eski A.Navoiy) MFY	2,8

** Tadbirkorlarga faqat ijara shartnoma asosida berilgan bo'lsa “yashil jamoat parklari”ga aylantirish choralari ko'riladi.*

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
25-3-47-Q/22-сон қарорига
3-илова

**2022-2026 yillarda tuman obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ko'kalamzorlashtirish
hududlariga sug'orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish bo'yicha**

D A S T U R

№	Tuman nomi	Jami sug'orish tizimlari va qaziladigan suv chiqarish quduqlari			2022 yil			2023 yil			2024 yil			2025 yil			2026 yil		
		Sug'orish tizimla-rini tashkil etish (km)	Suv chiqarish quduqlar soni (birlik)	So'mma (ming so'm)	Sug'orish tizimla-rini tashkil etish (km)	Suv chiqarish quduqlar soni (birlik)	So'mma (ming so'm)	Sug'orish tizimla-rini tashkil etish (km)	Suv chiqarish quduqlar soni (birlik)	So'mma (ming so'm)	Sug'orish tizimla-rini tashkil etish (km)	Suv chiqarish quduqlar soni (birlik)	So'mma (ming so'm)	Sug'orish tizimla-rini tashkil etish (km)	Suv chiqarish quduqlar soni (birlik)	So'mma (ming so'm)	Sug'orish tizimla-rini tashkil etish (km)	Suv chiqarish quduqlar soni (birlik)	So'mma (ming so'm)
1	Do'stlik tumani	6,0	5,0	1 156,0	1,0	1,0	206,0	1,0	1,0	206,0	1,0	1,0	220,0	1,0	1,0	248,0	2,0	1,0	276,0

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
25-3-47-Q/22-сон қарорига
4-илова

**2022-2026 yillarda tuman obodonlashtirish boshqarmasini
maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash**

PARAMETRLARI *

№	Tuman nomi	Jami		Talab etiladigan texnikalar nomi											
				Xazon yig'ish mashinasi (ISUZU)		Samosval (ISUZU)		Avtominora (ISUZU)		Suv tashigich (ISUZU)		Avtobus (ISUZU)		Daraxt ko'chirish texnikasi	
		soni	So'mmasi	soni	So'mmasi	soni	So'mmasi	soni	So'mmasi	soni	So'mmasi	soni	So'mmasi	soni	So'mmasi
Jami															
1	Do'stlik tumani	3	2 362 000	1	825 000	1	625 000	1	912 000						
2022 yilda															
1	Do'stlik tumani	1	625 000			1	625 000								
2023 yilda															
1	Do'stlik tumani	1	912 000					1	912 000						
2024 yilda															
1	Do'stlik tumani														
2025 yilda															
1	Do'stlik tumani	1	825 000	1	825 000										

2026 yilda														
1	Do'stlik tumani													

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
25-3-47-Q/22-сон қарорига
5-илова

Tumanda yashil hududlarni rivojlantirish, ko'kalamzorlashtirish va ko'chat ekish

ishlarini tizimli tashkil etish bo'yicha

Nazorat reja

№	Tadbirlar	Amalga oshiriladigan ishlar	Moliyalashtirish manbai	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
----------	------------------	------------------------------------	--------------------------------	---------------------	--------------------------

1	<p>Moratoriy uzaytirilishi bilan kiritilayotgan yangi cheklovlarni qonunchilikka joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>	<p>Normativ-huquqiy va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalari. Loyihalarda huquqbuzarlarga moratoriy talablarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalar miqdorini besh baravarga hamda daraxtlar va butalarni noqonuniy kesish va shikastlantirish bilan o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish so'mmalarini ikki baravarga oshirgan holda qo'llash; moratoriy talablarini buzgan qurilish-pudrat tashkilotlarining "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimidagi darajasini (reyting bahosini) bir pog'ona pasaytirish; yangi quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metr va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlarni loyihalashtirishda ularga tutash hududlarning ko'klamzorlashtirish (daraxtlar, butalar, boshqa o'simliklar va nihollarni ekish) maydonlari loyiha uchun ajratiladigan yer uchastkalari umumiy maydonining 25 foizidan kam bo'lishiga yo'l qo'ymaslik (ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan va ma'nan eskirgan bino va inshootlarni renovatsiya qilish bundan mustasno) nazarda tutiladi.</p>	Mablag' talab etilmaydi	2022 yil	Mablag' talab etilmaydi
II. Daraxt va butalarni ekish, yashil hududlarni tashkil etish va irrigatsiya faoliyatini jadallashtirish choralari					

2	“Yangi O‘zbekiston bog‘i” namunasi asosida hududlarda tegishli bog‘larni barpo etish.	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda, hududlar kesimida belgilangan tartibda yer maydonlarini ajratish; bog‘larni tashkil etish uchun daraxt-butano‘simliklarini tanlash va zamonaviy dizayn arxitekturasi asosida ko‘chatlarni ekish sxemalarini ishlab chiqish; belgilangan sxemalarda sug‘orish tizimlari va irrigatsiya tarmoklarini tayyorlash; ko‘chatlarning ekish sxemalari bo‘yicha agrotexnika qoidalari asosida ekilishini tashkil etish.	Mahalliy byudjet mablag‘lari	2022-2024 yillar	Tuman hokimligi, O‘rmon xo‘jaligi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi.
3	Tuman markazida aralash turdagi daraxtlarni ekishga chek qo‘yib, “kashtan ko‘chasi”, “chinor ko‘chasi”, “eman ko‘chasi”, “lola daraxti ko‘chasi” kabi namunaviy ko‘chalar tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda, har bir hududning iqlimi, tuproq sharoitidan kelib chiqqan holda ekiladigan daraxt turi va ekish joylarini belgilash; Sug‘orish tizimini hal qilgan holda ekishni tashkil etish va ko‘chatlarning saqlab qolinishini ta‘minlash tizimi nazarda tutiladi.	Hisob-kitoblar asosida	2022 yil noyabr	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi, Moliya bo‘limi, O‘rmon xo‘jaligi.
III. Daraxtlar, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish buyicha choralar					
4	Daraxtlar va butalarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kundakov qilganlik, shikast yetkazganlik boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazganlik hamda parvarish qilmaslik oqibatida ularning qurib qolishi uchun javobgarlikni kuchaytirish.	Qonun loyihasini ishlab chiqish uchun belgilangan tartibda takliflar tayyorlash va Davlat Ekologiya qo‘mistasiga taqdim etish.	Mablag‘ talab etilmaydi	2022 yil mart	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi
5	Daraxt va butalar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda, daraxt va butalar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish bo‘yicha xalkaro tajribalarni o‘rganish; Tuman hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi, Karantin agentligi hududiy bo‘limlarining daraxt va butalar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish bo‘yicha moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.	Tashabbuskorlar mablag‘lari	2022 yil fevral	Tuman hokimining o‘rinbosari T.Sherbekov, Karantin agentligi viloyat boshqarmasi vakili, O‘rmon xo‘jaligi.

Дўстлик туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
25-3-47-Q/22-сон қарорига
6-илова

Tuman hududidagi irrigatsiya va sug'orish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ishchi guruhi

T A R K I B I

№	Familiyasi va ismi	Lavozimi
1	L.Suyunov	Tuman hokimining o'rinbosari, ishchi guruhi rahbari
2	T.Sherbekov	Tuman hokimining o'rinbosari
3	B.Saytqulov	Tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i
4	A.Mirzaqulov	Tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i
5	X.Abdiyev	Tuman qurilish bo'limi
6	A.Markaboyev	Tuman uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i
7	B.Muxtorov	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i

Izoh: - ishchi guruhi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning o'rniga yangi tayinlangan yoki vazifasini bajaruvchi shaxslar komissiya a'zosi hisoblanadi.

Ishchi guruhi tarkibiga zarurat bo'lganda davlat va xo'jalik boshqaruvi tegishli organlarining rahbarlari va mutaxassislari jalb etilishi mumkin.